



Jizzax davlat  
Pedagogika  
universiteti

TARIX FAKULTETI



# TARIX va JAMIYAT

## JOURNAL 2023



**№5**

**HISTORY AND SOCIETY**  
**ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО**  
общественный электронный  
**ЖУРНАЛ**



## TARIX VA JAMIYAT ILMIY ELEKTRON JURNAL

---

2023-yil 5-son Ijtimoiy-gumanitar fanlar  
Tarix, falsafa, huquq, sotsiologiya, o'qitish metodikasi

---

**Bosh muharrir:** Pardayev A.H. JDPU, tarix fakulteti dekani,  
t.f.n., dotsent.

**Bosh muharrir o'rinbosari:** Aqchayev F.Sh. JDPU, t.f.b.f.d. (PhD), dotsent.

**Mas'ul kotib:** Saidov J.O. JDPU, Tarix fakulteti o'qituvchisi

### TAHRIRIYAT A'ZOLARI:

1. Sagdullayev A.S. – tarix fanlari doktori, Akademik
2. Ahmedshina F.A. – tarix fanlari doktori, professor
3. Shodmonova S.B. – tarix fanlari doktori, professor
4. Ochilova B.M. – falsafa fanlari doktori, professor
5. Choriyev S. – falsafa fanlari doktori, professor
6. Tulenova G. J. – falsafa fanlari doktori, professor
7. Pardayev M.H. – tarix fanlari doktori, dotsent
8. G'oyibov B.S. – tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
9. Yarmatov R.B. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
10. Saidqosimov A.I. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
11. Amanullayev A. – f.f.b. fan doktori (PhD), dotsent
12. Toshboyev F.E. – tarix fanlari bo'yicha fan doktori (PhD), dotsent
13. Mirkomilov B. – tarix fanlari nomzodi, dotsent
14. Saidov M. – falsafa fanlari nomzodi, dotsent
15. G'ofurov J.I – tarix fanlari bo'yicha fan doktori (PhD), dotsent
16. Hoshimxonov M.X. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
17. Valiyev A.X. – katta o'qituvchi
18. Majidov A.S. – katta o'qituvchi

**Dizayner va sahifalovchi:** Axmurodov D.Q

---

# QADIMGI DAVRDAGI MIGRATSIYALARNING O'RGANILISHIGA DOIR

Toshboyev F.E., Jizzax DPU dotsenti,

Qudratov O'.A., Tarix yo'nalishi IV bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada qadimgi davr xususan, bronza davrida chorvador qabilalarning O'rta Osiyoga migratsiyasi masalariga doir arxeologik ilmiy nazariyalar tahlil etilgan. Ushbu ma'lumotlar Ustrushonada o'rganilgan mozorqo'rg'onlar materiallari asosida yozilgan.

**Kalit so'zlar:** Ustrushona, Bronza davri, YE.Kuzmina, migratsiya, chorvadorlar, Yunon-Baqtriya, Yuechji, mozorqo'rg'on.

**Аннотация:** В данной статье анализируются археологические научные теории о миграции скотоводческих племен в Среднюю Азию в античный период, особенно в эпоху бронзы. Эти сведения написаны на основе материалов изученных в Уструшене надгробий.

**Ключевые слова:** Уструшена, эпоха бронзы, Е.Е.Кузьмина, миграция, скотоводы, Греко-Бактрия, Юэчжи, курган.

**Abstract:** This article analyzes archaeological scientific theories about migration of herding tribes to Central Asia in the ancient period, especially during the Bronze Age. This information is written on the basis of the materials of tombstones studied in Ustrushona.

**Key words:** Ustrushona, Bronze Age, YE.Kuzmina, migration, herdsman, Greco-Bactria, Yuechji, burial mound.

Keyingi yillarda jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari tomonidan ko'chmanchi chorvador qabilalarning dunyo sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo'shgan hissasi va ular tomonidan sodir bo'lgan migratsiyalar masalasida yangicha qarashlar ilgari surilmoqda. Unga ko'ra ko'chmanchilar migratsiyasining yirik to'liqini bronza davrida kechgan.

Bu paytda O'rta Osiyo aholisi xo'jaligi ilk mehnat taqsimoti tufayli dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi o'troq va chorvachilik bilan shug'ullanuvchi ko'chmanchi guruhga ajralgan. Bu davrning boshlarida chorva dastlab makonlarning atroflaridagi yaylovlarda boqilgan. So'ng mavsumiy ko'chib yurish, ya'ni yarim ko'chmanchi chorvachilik vujudga kelgan. Tabiiy resurslarning cheklanishi o'zlashtirilmagan yaylovlarga va suv manbalariga ehtiyoj uzoq yurtlarga ko'chib xo'jalik yuritishga sabab bo'lgan va bu paytda o'zlashtirilgan yerlar va

yashash hududlari tobora kengayib, chorvador qabilalar dasht va tog‘ oldidagi keng hududlarda yoyilgan<sup>62</sup>.

Biz uchun asosiy masala bronza davrida chorvador qabilalarning O‘rta Osiyoga migratsiyasi hisoblanadi. YE.YE.Kuzminaning yozishicha, ko‘chmanchilarning Yevrosiyo dashtlaridan O‘rta Osiyo va janubiy mintaqalarga migratsiyasi taxminan mil. avv. XVI asrdan bosqichma –bosqich amalga oshirilgan. Uning boshlang‘ich nuqtalari Volgabo‘yi, Janubiy Ural, Qozog‘istonning shimoliy-g‘arbi va G‘arbiy Sibir dashtlarida joylashgan. Bu yerlardan chorvador qabilalar Janubiy Orolbo‘yi, Sharqiy Kaspiybo‘yi, Turkmanistonning janubiy-g‘arbi, quyi Murg‘ob, Zarafshon va Toshkent vohalari hamda Farg‘ona vodiysi va Janubiy Tojikiston hududlariga kelib o‘rnashgan<sup>63</sup>.

So‘ngi ilmiy ma‘lumotlarga ko‘ra, dasht chorvador qabilalari O‘rta Osiyoning deyarli barcha viloyatlarida mil. avv. XVI-XIII asrlar mobaynida joylashganlar. Uni asoslovchi ko‘plab yodgorliklar Zarafshon vohasida o‘rganilgan. Ular manzilgohlar, uy-joylar qoldiqlari, tog‘-konchilik bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish obyektlari – metallurgiya markazlari hamda mozorqo‘rg‘onlardan iboratdir<sup>64</sup>. Zarafshon vohasidagi davriga oid Gujayli, Mo‘minobod, Qizil-qir, Saygus, Chaqqa, Siyob, Dashti Asht, Dashti Qazo kabi chorvadorlarga mansub mozorqo‘rg‘onlardagi qabr tuzilishi, marhumlarning dafn marosimlar, olovga sig‘inish izlari, sopol idishlarning yasaliş, shakli va naqshlari, marhumning antropologik tipi Andronovo jamoalariga xos xususiyatlarni o‘zida namoyon qiladi<sup>65</sup>. Qabrlarda jasad bilan birga, sopol idishlar, turli xildagi bezak buyumlari, oxra, hamda ko‘mir kukuni va bo‘lakchalari qayd qilingan. Sopol idishlar qo‘lda yasalgan bo‘lib, ularning ko‘pchiligi tuvaksimon shaklda, turli xil, uchburchak, archasimon shakldagi kertik va tarnovchasimon bezaklardan iborat bo‘lib, ular bir-biridan chizish va bosma naqsh berish yo‘li bilan harakterlanadi. Naqshlar asosan idishning toraygan bo‘ynidan pastroqda tasma shaklida tushirilgan. Bu sopol idishlar Qozog‘istondagi Andronovo madaniyatining so‘nggi bosqichlariga oid makonlar va Tozabog‘yob sopol idishlariga o‘xshashdir. Odam bosh chanoqlarining ikkitasi marhumning Andronovo jamoalariga mansubligi aniqlangan<sup>66</sup>. O‘z navbatida bu yerdan dehqon jamolar madaniyatiga mansub sopollar ham topilgan.

<sup>62</sup> Грязнов М.П. Пастушеские племена Средней Азии в эпоху развитой поздней бронзы // КСИА. Вып. 122. Москва, 1970. С.41.

<sup>63</sup> Кузмина Е.Е. О южнѣх пределах распространения степных культур эпохи бронзы в Средней Азии // Памятники каменного и бронзового века Евразии. Москва, Наука, 1964. С. 122-138.

<sup>64</sup> Сагдуллаев А.С., Холматов Н.Ў., Абдуллаев Ў.И. ва бошқ... Марказий Осиёда тарихий маданий вилоятларнинг шаклланиши ва этник географияси муаммолари... Б.105.

<sup>65</sup> Исаков А., Потемкина Т.М. Могильник племен эпохи бронзы в Таджикистане // СА. Вып. 1, Душанбе, 1989. С. 145-167.

<sup>66</sup> Исаков А., Потемкина Т.М. Могильник племен эпохи бронзы в Таджикистане... – С.159-160.



Yevroosiyo dashtlaridan ko‘p sonli chorvador aholi kirib kelishining eng yirik to‘lqinlaridan biri antik davrda, ayniqsa, mil. avv. I-ming yillikning so‘nggi choragida kuzatilgan. Mil. avv. III-II asrlarda Xitoyning shimoli-g‘arbida sodir bo‘lgan siyosiy voqealar turkiy qabilalarning kuchayib ketishiga sabab bo‘ladi. Mil.avv. 73-48 yillar oralig‘ida xun yabg‘ulari o‘zaro ochiq raqobatlashib yurgan kezlarda, Markaziy hokimiyat zaiflashib, Xan sulolasi hukmdorlari xunlar ustiga harbiy yurishlar uyushtiradilar. Ikkala davlat o‘rtasidagi janglarda xitoyliklarning qo‘li baland kelib, xunlar g‘arbiy hududlarga chekinishga majbur bo‘ladilar<sup>67</sup>.

Xunlarning g‘arbga siljishi yuechji qabilalarining O‘rta Osiyoga kirib kelishini tezlashtirgan. Xitoy manbalarida ushbu kirib kelgan xalqlar, usun, se va dayuechji deb, atalgan. Antik davr manbalarini Xitoy manbalari bilan solishtirilganda faqat toxarlardan dayuechji va sakarauklar “se” (N.Y. Bichurin shunday atagan F.T.)ga mos keladi. Shu manbada, yuechjilarning O‘rta Osiyo janubiga borib joylashganligi eslatiladi. Antik davr mualliflari asarlarida ham asii – Yuechji (ruze-g‘uzerlik)larning janubga ko‘chib, Yunon-Baqtriya davlati bilan to‘qnashib bu yerdan yunonlarni surib chiqarganligi qayd etiladi. Strabon Baqtriyani yunonlardan tortib olgan qabilalarni Sirdaryo narigi tomonidan ko‘chgan, sak va so‘g‘dliklar bilan yonma-yon yashagan, asii, pasian, toxar va sakaraullar, deb ataydi va asiilar toxar podsholari sakaraullarni mag‘lub qilganligini, Baqtriya va Sug‘diyoni skif(sak) qabilalaridan Yaksart orqali kirib kelgan, sarauk va asianlar zabt etganligi haqida ma‘lumot beradi. Yuechjilarning Baqtriya sari ko‘chishi mil. avv. 174-130 yillar oralig‘ida sodir bo‘lgan.

Ustrushona tog‘larida olib borilgan tadqiqotlar migratsiyalarning yirik to‘lqini keyinchalik – antik va ilk o‘rta asrlarda bo‘lganligini ko‘rsatadi. Antik davrdagi migratsiyalar ham o‘z xususiyatiga ko‘ra oldingilaridan farq qilmagan. Chorvador qabilalar o‘troq, ilk shahar madaniyati va sivilizatsiyaga erishgan xalqlar bilan yonma-yon yashab to‘liq assimilyatsiya jarayonini boshidan kechirgan. Dasht qabilalari bilan mahalliy madaniyatning yaqinlashishi, o‘zaro bir-biriga ta’siri masalasi kulolchilik, metalsozlik sohalarida kuzatilgan va mutaxassilar tomonidan o‘rganilgan.

Bu jarayon Farg‘ona, Choch, O‘rta Sirdaryo havzasida va Janubiy Tojikiston hududida joylashgan Tulxar, Babashov qo‘rg‘oni, Bishkent va Vaxsh madaniyatlar misolida o‘rganilgan<sup>68</sup>. Ularda dasht qabilalariga xos bo‘lgan krematsiya va o‘troq aholiga xos ingumatsiya bir xil qo‘llangan. O‘troq va ko‘chmanchi qabilalar bir hududda yashagan, o‘zaro bir biriga ta’siri natijasida aralash jamoa hosil bo‘lgan. Chorvador qabilalarning xo‘jalik yuritishi urug‘ jamoalarning ehtiyojlarini

<sup>67</sup> Сагдуллаев А.А. Ўзбекистон тарихи. – Тошкент: 1999. – Б. 82.

<sup>68</sup> Мандельштам А.М. Памятники эпохи бронзы в Южном Таджикистане. Ленинград, 1968. С. 135.

qondirishga yoʻnaltirilgan. Ayni paytda dehqon va chorvadorlar oʻrtasidagi iqtisodiy aloqalarda xomashyo, gʻalla, goʻsht, jun charm, teri va moʻynadan yasalgan kiyim kechak, qimmatbaho metallar, bronza buyumlari, gilam, olacha kabi toʻqim buyumlar va boshqa mahsulotlardan oʻzaro ayriboshlashda foydalanilgan. Bu Oʻrta Osiyo madaniyatlari genezisida yuz bergan eng birinchi yirik assimilyatsiya - qorishib ketish jarayonida bosh rol oʻynagan. Bu mintaqa xalqlari keyingi iqtisodiy, madaniy, etnik shakllanishi tarixida yoʻnalish boʻlib xizmat qilgan<sup>69</sup>.

Sirdaryo havzasi ikki xil xoʻjalik sohiblari uchun “kontakt zona” boʻlib, har ikki tomon doimo bir-birining mahsulotlariga kuchli ehtiyoj sezgan. Yonma-yon yashash tarzi va dashtdan koʻchmanchi chorvador aholi guruhlarining kirib kelishi, oʻzaro etnik qorishuvni ham tezlashtirgan<sup>70</sup>. Ustrushonada kechgan bu kabi tarixiy jarayonlar bugungi kunda ham oʻzining ilmiy tahlilini kutmoqda. Oʻrta Osiyo sharoitida iqtisodiyotning uzluksiz rivoj topishi faqat oʻziga xos mehnat taqsimoti va ikki xil xoʻjalik yurituvchi aholi madaniy areallari faoliyatining integratsiyalashuvi bilan belgilanadi.

Xulosa qiladigan boʻlsak, Ustrushonada oʻrganilgan mozorqoʻrgʻonlar materiallarida mil. avv. II-I asrlarda mayitlarni shimoliy va sharqiy yoʻnalishda dafn etish koʻp marotaba qayd qilingan. Arxeologik maʼlumotlarga koʻra, yuechjilarda oilaviy qabr yoki bir avlodga tegishli qabriston mavjud boʻlib, vafot etganlarning boshini teri bilan oʻrab, shimolga qaratib dafn etish odat boʻlgan<sup>71</sup>. Muzorqoʻrgʻonlarda qayd qilingan shimoliy yoʻnalishda dafn etish va jasad yoniga qoʻyilgan buyumlar (qilich va xanjar)ning yuechjilar madaniyatiga yaqinligi, yoki marhumlarni qabrda yoki uni atrofida yoqish va boshqalar ularni yuechjilar yoki ular taʼsirida boʻlgan qabilalarga tegishli, degan taxminlarimiz haqiqatga yaqinligini koʻrsatmoqda. Demak, eramiz boshlarida yuechji qabilalari va ular bilan kirib kelgan elatlar Ustrushona madaniy hayoti va ijtimoiy siyosiy jarayonlariga katta taʼsir koʻrsatgan. Fikrimizni Fargʻonada siyosiy hokimyatning mil. avv. I asrning ikkinchi yarmida katta yuechjilar qoʻlida boʻlganligi haqidagi qarashlar yanada boyitadi.

### **Adabiyotlar:**

1. Грязнов М.П. Пастушеские племена Средней Азии в эпоху развитой поздней бронзы // КСИА. Вып. 122. Москва, 1970.

<sup>69</sup> Сагдуллаев А.С., Холматов Н.Ў., Абдуллаев Ў.И. ва бошқ... Марказий Осиёда тарихий маданий вилоятларнинг шаклланиши ва этник географияси муаммолари. .. Б.134.

<sup>70</sup> Тошбоев Ф.Э. Взаимовлияние степной и оседлоземледельческой культур Уструшаны в эпоху античности и раннего средневековья // ВЕСТНИК МИЦАИ. Вып. № 23. Самарканд, 2016. 89-105.

<sup>71</sup> Хўжаев А. Фаргона тарихига оид маълумотлар. “Фаргона”. 2013. – Б.189.

2. Кузмина Е.Е. О южных пределах распространения степных культур эпохи бронзы в Средней Азии // Памятники каменного и бронзового века Евразии. Москва, Наука, 1964.
3. Исаков А., Потемкина Т.М. Могильник племен эпохи бронзы в Таджикистане // СА. Вып. 1, Душанбе, 1989.
4. Сагдуллаев А.А. Ўзбекистон тарихи. – Тошкент: 1999.
5. Мандельштам А.М. Памятники эпохи бронзы в Южном Таджикистане. Ленинград, 1968.
6. Тошбоев Ф.Э. Взаимовлияние степной и оседлоземледельческой культур Уструшаны в эпоху античности и раннего средневековья // ВЕСТНИК МИЦАИ. Вып. № 23. Самарканд, 2016.
7. Хўжаев А. Фаргона тарихига оид маълумотлар. “Фаргона”. 2013.